



KONCHILAR HAYOTI

Gazeta 1991-yildan chiqa boshlagan

№11 (797), 2025-yil 16-iyun

facebook.com/nkmkofficialt.me/ngmkofficialinstagram.com/nkmk.officialwww.ngmk.uz

■ Dolzarb mavzu

RAQAMLASHTIRISH – TARAQQIYOTNING YANGI KO‘RINISHI

Yurtimizda iqtisodiy islohotlarning natijadorligini oshirishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining o‘rni va ahamiyati tobora ortib borayotir. Bu borada iqtisodiyot tarmoqlarida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini amalda keng qo‘llash, ulardan foydalanishda “Elektron hukumat” tizimining tatbiq etilishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Bugungi kunda O‘zbekistonda iqtisodiyotning barcha tarmoqlariga raqamli texnologiyalarni joriy etish bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Navoiy kon-metallurgiya kombinatida ham bu borada salmoqli ishlar bajarilmoqda. Yangi ishlab chiqarish quvvatlarining yaratilishi barobarida barcha ishlab chiqarish jarayonlariga zamonaviy raqamli texnologiyalar joriy etilmoqda. Bu kabi yangilanishlar, amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli ishlar haqida “NKMK” AJ Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari boshqarmasi boshlig‘i o‘rinbosari Bahriddin BOZOROV quyidagilarni bayon etdi:

– Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari boshqarmasi mutaxassislari tomonidan “NKMK” AJ da 2023-2030-yillarga mo‘ljallangan Raqamli transformatsiya strategiyasi loyihalari va ularni amalga oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar doirasida barcha loyihalar to‘liq bajarilmoqda. Raqamli texnologiyalardan foydalangan holda operatsion samaradorlikni oshirish hisobiga 2024-yilda 273 milliard so‘m iqtisodiy samara ko‘rildi. Kombinatda transport vositalari va mexanizmlarini avtomatik monitoring tizimi doirasida 3 700 dan ortiq transport vositalariga avtomatik o‘lchov va nazorat vositalari o‘rnatilishi hisobiga oxirgi ikki yilda 21 ming 301 tonna dizel yoqilg‘isi yoki 265 milliard so‘m iqtisod qilindi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 15-iyundagi 373-son qaroriga muvofiq Respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari, xo‘jalik birlashma-

lari va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlarida 2024-yil uchun raqamli texnologiyalar holatini reyting baholash natijalariga ko‘ra “NKMK” AJ xo‘jalik boshqaruvi organlari o‘rtasida 97,98 ball bilan I-o‘rinni egalladi.

Texnologik ko‘rsatkichlarni optimallashtirish, ishlab chiqarish hajmi va samaradorligini oshirish, mahsulot tannarxini pasaytirish maqsadida kombinatda texnik va texnologik yangilanish, modernizatsiya va avtomatlashtirish, ishlab chiqarishga sun‘iy intellekt va raqamli texnologiyalarni joriy etish bo‘yicha ko‘plab yirik loyihalar amalga oshirilmoqda.

“Qoraqo‘ton va Gijumsoy yer osti konlarini raqamlashtirish” ana shunday loyihalardan biridir. Loyihaga ko‘ra, yer osti konlarida mehnat muhofazasi va texnika xavfsizligi qoidalariga rioya qilinishini ta‘minlash, xodimlar va texnikalarning ish samaradorligini yangi



bosqichga olib chiqish tizimlari joriy etildi. Ushbu tizimning asosiy maqsadi yer osti kon ishlarida xodimlar xavfsizligini ta‘minlashning avtomatlashtirilgan axborot tizimini ishlab chiqish orqali xavfsiz mehnat faoliyatini ta‘minlashdan iborat.

Uning afzalligi shundaki, yer osti kon ishlarida havo changi darajasini, harorat va namlikni, favqulodda vaziyatlarda xodimlar va kon texnikalarini qidirish va joylashuv koordinatasini aniqlashni nazorat qiladi va boshqaradi. Shaxtadagi kon-transportlari va xodimlar to‘qna-shuvining oldini olish maqsadida xavfsiz oraliq masofani ta‘minlashi bilan o‘z samarasini bermoqda. Eng muhimi, bu loyiha xodimlarning salomatligi va jismoniy holatini aniqlash va nazorat qilishning intellektual axborot tizimi hisoblanadi.

Bugungi kunda tovar, moddiy zaxiralarni boshqarishni takomillashtirish masalasi juda dolzarb hisoblanadi. Tovar-moddiy boyliklar harakati va ombor zaxiralarni boshqarish tizimi “NKMK” AJ eh-tiyollarini shakllantirishda tovar va

materiallarni xarid qilish jarayoni yillik so‘rovlarni shakllantirishdan tortib, ularni sotib olish va yetkazib berishgacha bo‘lgan zanjirning har bir bosqichida axborot texnologiyalaridan foydalanishni o‘z ichiga oladi. Bu jarayonlar tovarlarni zavod va konlarga o‘z vaqtida samarali yetkazib berish imkonini beradi. Moddiy resurslar to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni boshqaruv tizimi va tarkibiy omborlar bilan integratsiyalash orqali yillik xarajatlar limiti boshqariladi, shuningdek, talab shakllangan hududlarda tovar va ishlarining bajarilishi haqida to‘liq ma‘lumot olinadi. Bu ishlab chiqarishning uzluksizligini ta‘minlash va favqulodda zaxira materiallari bilan ta‘minlash tizimini mustahkamlashga yordam beradi. Tovarlar, ishlar va xizmatlar to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni yagona ma‘lumotlar bazasida saqlash va uni yuqori tashkilotlar tomonidan nazorat qilish orqali ma‘lumotlarni qidirish va undan foydalanishni tezlashtirish mumkin. Bunday modul, ayniqsa, “NKMK” AJ kabi yirik sanoat korxonalari uchun tovar va xizmatlarni boshqarish jarayonlarini avtomat-

lashtirish va ular o‘rtasidagi axborot oqimini optimallashtirish samaradorligini oshiradi.

Modul nafaqat tovar va xizmatlar haqidagi asosiy ma‘lumotlarni boshqaradi, balki so‘rov qilingan hudud yoki bo‘lim, markaziy texnik ta‘minot bazalaridagi qoldiqlar, yil davomida pudratchilardan “NKMK” AJga tushgan summalar haqidagi ma‘lumotlarni ham o‘z ichiga oladi. Bunday tizim integratsiyalashgan ma‘lumotlar bazasi orqali real vaqt rejimida barcha ma‘lumotlarni kuzatish, ularni yangilashni avtomatlashtirish va ombor balanslari asosida rejalashtirish imkonini beradi. Shuningdek, bu jarayon ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, talab va taklifning o‘zaro uyg‘unligini ta‘minlash, zaxiralarni optimallashtirishda muhim ahamiyatga ega. Tizim modullari o‘rtasida ma‘lumotlar almashinuvi yuqori aniqlik va xavfsizlik bilan amalga oshiriladi, bu barcha bo‘limlarga tovar va xizmatlarning mavjudligi va yetkazib berilishi haqida batafsil ma‘lumot olish imkonini beradi.

[Davomi 3-betda](#) ➡

■ Madaniyat

QORAQALPOQ ANSAMBLI KONCHILAR HUZURIDA

Navoiy kon-metallurgiya kombinati ma‘muriyati va kasaba uyushmasi Kengashi tashabbusi bilan kombinat ishchi-xodimlari va ularning oila a‘zolari uchun Zarafshon, Uchquduq shaharlari, Zafarobod qo‘rg‘oni, shuningdek “Aydarko‘l” dam olish maskanida “Do‘ngalak”, “Qo‘shquduq” ovullari aholisi uchun “Ayqulash” ansamblining konsert dasturlari bo‘lib o‘tdi. El suygan san‘atkorlar, raqs dastalari tomonidan o‘zbek, qoraqalpoq, qozoq va boshqa tillarda yangragan kuy-qo‘shiq hamda raqsalar muxlislar qalbini zabt etib, olqishlarga sazovor bo‘ldi.

– Taassurotlarimiz olam-olam. Konsert ko‘tarinki ruhda, ko‘plab muxlislar ishtirokida o‘tdi. Bizning Zarafshon shahrimizda “Ayqulash”ning muxlislari, ixlosmandlari nihoyatda ko‘p. Shaxsan menga bu jamoaning chiqishlari kutilganidan ham ziyoda taassurot bag‘ishladi, – deydi MKB yoshlar yetakchisi Saodat Boboyorova. – Tadbir katta tayyorgarlik, uyushqoqlik bilan o‘tdi. Eng asosiysi, kombinatimizning madaniyat va san‘atga, bir so‘z bilan aytganda, yoshlar kelajagiga bo‘lgan e‘tibori, qo‘llab-quvvatlashini chuqur his etdik.

Qoraqalpoq milliy qo‘shiqchilik, sozandalik va raqs san‘atining sara namunalarini o‘zida jamlagan ushbu konsert dasturlarida O‘zbekiston va Qoraqalpog‘iston xalq artisti Gulxatisha Aymbetova, Qoraqalpog‘istonda xizmat ko‘rsatgan artistlar Baxtiyar Yesemu-

ratov va Bayram Perdebayev, “Shuhrat” medali sohibi Maxset Xojasov, xonandalar Ilyas Baltabayev va Damir Torenliyazov, “Ayqulash” ansambli raqqosalari ijrosidagi “Ush-rasio”, “Shag‘ala”, “Bir pariy”, “Kiyallarin kimde”, “Sho‘x jigetter”, “Bir kese shay” va boshqa jozibador qo‘shiq va raqsalar san‘at ixlosmandlarini maftun etdi.

– Eng asosiysi, ijodiy safarimiz davomida bizga barcha imkoniyatlarni yaratib bergan Navoiy kon-metallurgiya kombinati rahbariyati va kasaba uyushma Kengashiga, joylardagi bo‘linmalar mutasaddilariga, ko‘pming kishilik jamoaga samimiy tashakkurimizni bildiramiz! San‘at ixlosmandlari bizni samimiy ruhda qarshi olib, qo‘llab-quvvatlab turdi, – deydi O‘zbekiston va Qoraqalpog‘iston xalq artisti Gulxatisha Aymbetova.

“Ayqulash” milliy folklor ansambli nafaqat



yurtimizning turli go‘shalarida, balki dunyo bo‘ylab folklor festivallarida qatnashib, xalqaro do‘stlik aloqalarini mustahkamlashga o‘z hissasini qo‘shib kelayotir. Eng muhimi, bu ansambl respublika va xalqaro miqyosda o‘tgan nufuzli tanlovlarda faxrli o‘rinlarni qo‘lga kiritib, rang-barang musiqiy dasturlari bilan muxlislar qalbidan joy olishga ulgurdi.

Ansambl ijodiy jamoasi qo‘shiqsevarlar yuragiga yetib boradigan, qalbini larzaga

soladigan qoraqalpoq qo‘shiq va raqsini jahon sahnasiga olib chiqdi va dunyoga tanitdi. “Ayqulash” jamoasi qoraqalpoq san‘atini keng targ‘ib etish, yosh avlodni milliy qadriyatlarini ulug‘lash ruhida tarbiyalash, ularning ma‘naviy dunyosini yanada boyitishga xizmat qilmoqda.

Dildora KARIMOVA.
Viktor YAKOVLEV olgan surat.

■ Xabarlar

Ishlab chiqarish hajmining oshib borishi, iqlim o‘zgarishi, energiya resurslarining kamayishi dolzarb muammolarni keltirib chiqarmoqda. Buning oldini olish maqsadida, yurtimizda davlatimiz rahbari boshchiligidagi keng qamrovli ishlar olib borilib, muhim hujjatlar qabul qilindi.

“YASHIL ENERGETIKA” - IQTISOD MANBAI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 16-fevraldagi “2023-yilda qayta tiklanuvchi energiya manbalarini va energiya tejavchi texnologiyalarni joriy etishni jadallashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori Navoiy kon-metallurgiya kombinati oldiga ham muhim vazifalarni qo‘ydi. Ulkan korxonada qaror ijrosini ta‘minlash, shuningdek, ishlab chiqarish tarmoqlarini yashil energetikaga o‘tkazish, energiyani iqtisod qilish, muqobil va qayta tiklanuvchi energiya manbalarini joriy etish yuzasidan qator hujjatlar qabul qilinib, ular ijro etilmoqda. Bu dasturlarni amalga oshirishda Markaziy kon boshqarmasi jamoasi faol ishtirok etib kelmoqda. Keyingi yillarda 1,2 mingga yaqin quyosh suv isitish qurilmalari (geleokollektorlar) o‘rnatilib, ular yordamida bir kunda 8,3 Gkal issiqlik energiyasi ishlab chiqarilmoqda.

So‘nggi yillarda umumiy quvvati 1,55 ming kVtlik quyosh fotoelektr stansiyalari ishga tushirilgan elektr energiyasini tejash imkonini berayapti. O‘tgan yilda investitsion loyihalar asosida 11 ta obyektda umumiy quvvati 1,45 ming kVtlik quyosh fotoelektr stansiyasi foydalanishga topshirildi.

Jumladan, Tashqi suv ta‘minoti birlashgan energoxizmatida 700 kVt, 2-gidrometallurgiya zavodida 400 kVt, 7-gidrometallurgiya zavodida 200 kVt, Zarafshon ta‘mirlash-mexanika zavodida 100 kVt, 7-avtokorxonada 50 kVt quvvatga ega energiyatejamkor loyihalar ishga tushirildi.

Shu davrga qadar o‘rnatilgan quyosh fotoelektr stansiyalari yordamida soatiga o‘rtacha 564,5 kVt, kuniga qariyb 4,52 ming kVt, bir yilda esa 1,65 million kVt elektr energiyasi ishlab chiqarilmoqda. Buning natijasida kon boshqarmasining yillik elektr energiyasi sarfidan qariyb 1,65 trillion so‘m mablag‘ iqtisod qilindi.

– Biz, 2021-yildan buyon geliokollektorlardan foydalanib, ularning iqtisodiy jihatdan samaradorligini aniq natijalarda ko‘rib kelyapmiz. Bu yil ham bo‘linmalarda 130 dona geliokollektorlar o‘rnatish rejalashtirilgan, – deydi kon boshqarmasi muhandisi energetigij Jasur Almatov. – Zamonaviy quyosh fotoelektr stansiyalari yordamida joriy yilning dastlabki to‘rt oyida 538,2 ming kVt elektr energiyasi ishlab chiqarildi.

“Yashil” iqtisodiyotni keng joriy etish energiya va resurslarni tejash, atmosferaga zararli moddalar chiqishini kamaytirish, atrof-muhit va tabiatni asrash, iqtisodiyotni rivojlantirishga keng sharoit yaratadi.

Bugun yurtimizda xalq bilan ochiq muloqot qilish, aholining talab va takliflarini o‘rganish, ularning dardlarini tinglash, muammolarni imkon darajasida joyida hal etish barcha rahbar va davlat organlarining muhim vazifalaridan biri hisoblanadi.

SAYYOR QABUL BO‘LIB O‘TDI

“NKMK” AJ Markaziy kon boshqarmasi direktori Otabek Mustaqimov ham tizimda ishlayotgan konchi va metallurglar, ishchi-xodimlar bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri muloqot tizimini yanada takomillashtirish, ishlab chiqarish samaradorligiga salbiy ta‘sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan holatlarning oldini olish, bo‘linmalarda yechimini kutayotgan masalalarni joyida o‘rganishda tezkorlik bilan hal etish maqsadida tegishli mas‘ullar ishtirokida har oyda sayyor qabullar o‘tkazmoqda.

Yaqinda “Oltin vodi” madaniyat saroyida kon boshqarmasi direktorining 2-gidrometallurgiya zavodi ishchi-xodimlari bilan sayyor qabuli bo‘lib o‘tdi. Uchrashuvda ishtirokchilarning muammo va takliflari tinglandi.

– Sayyor qabulda yoz mavsumini inobatga olib, ishchilarni tashiydigan vagonlarga ichimlik suvini tashkil etish taklifini bildir-dim. Rahbariyat bu taklifni qo‘llab-quvvatlab, nafaqat vagonlar-da, balki har bir bo‘linmada ichimlik suvini tashkil etish yuzasidan tegishli mas‘ullarga vazifa yukladi va murojaatim hal bo‘lganidan xursandman, – deydi elektrmontyor Bekzod Yavqachev.

Ochiq muloqot ruhida o‘tgan uchrashuvda ishchi-xodimlardan faoliyatga taalluqli, jumladan, shaxsiy himoya vositalari va maxsus kiyimlar yetkazib berilishi, ularning sifati pastligi, kirib-chiqish uchun o‘rnatilgan turniketlar, nazoratchilar hamda poyezd vagonlari sonini ko‘paytirish va boshqa masalalar yuzasidan bildirilgan takliflarga batafsil tushuntirishlar, ularni hal etish bo‘yicha ko‘rsatmalar berildi.

Har bir murojaat odati inson manfaati, uning taqdiri yotibdi. Muloqotlar, bunday sayyor qabullar ishchilarning o‘z ishiga mas‘uliyatini oshirish bilan birga ertangi kunga ishonchini mustahkamlaydi.

Aziza IRISOVA.

■ 3-GMZ ishga tushirilganligining 30 yilligiga

ZAVODNI 400 BAROBARGA “KICHRAYTIRGAN” ODAM

Qizilqum kengliklarida joylashgan 3-gidrometallurgiya zavodini ko’pchilik haqli ravishda “oltin zavod” deb atashadi. Katta hududni egallagan maydonni bir kunda piyoda kezib chiqish amri-mahol. Bu erdagi bir-biriga bog’liq texnologiyalar oddiy odamgina emas, ilm-fandan biroz xabardor kishining ham hayratini oshiradi. Zavodda mamlakat iqtisodini oshirishdek sharafli vazifani zimmasiga olganlar xizmat qiladi, aslida.



masisiz zavod sexlarida biror detalni ham o’rnatib bo’lmaydi.

– Bugungacha byuromizda 7 mingdan ziyod loyihalar chizilgan bo’lsa, ularning mingdan oshig’ida ishlaganimdan g’ururlanaman, – deydi Husan aka. – Bizning chizmalar oddiy chizmalar emas, ular katta zavodimizda ulkan imkoniyatlar eishigini ochib beradi. Aslida yangilik bo’lgan joyda, albatta rivojlanish bo’ladi. Keyingi yillarda zavodda bizni hayratlantiradigan o’zgarishlar yuz bermoqda. Ishlab chiqarish hajmini oshirish maqsadida yangi texnologiyalar, yangi innovatsiyalar kirib kelmoqda.

Husan aka bilan suhbatlashar ekansiz, kasbini sevgan, ustoz darajasidagi insonni ko’rasiz. Qalbi go’zallikka, mehrga to’la.

Husan Nurnazarov konstruktorlik vazifasidan tashqari san’atga bo’lgan qiziqishi tufayli bo’sh vaqt topdi, deguncha ijodiy ishlar bilan shug’ullanadi. Shu qobiliyati tufayli rahbariyat unga zavod ichki va tashqi dizayni bo’yicha ishlarni ishonib topshiradi. Sex, uchastkalar stellalari, Uchquduq shahriga kirish yo’lidagi 3-GMZ emblemasi mual-

lifi ham Husan aka.

Yaqinda 3-gidrometallurgiya zavodi o’zining 30 yillik to’yini nishonladi. To’yga to’yona sifatida u zavodining 1:400 masshtabdagi maketini yasadi. Hali aytganimizdek, bir sexda ishlayotgan ishchi hudud kattaligidan ba’zida ikkinchi sex qayerdaligini ham bilmaydi. Husan aka esa ixcham maketi bilan shu yerda ishlashidan g’ururlanayotgan ishchi-xodimlarni zavodlari bo’ylab “sayyohatga”

chorlaydi. Endi Uchquduqda bo’ladigan sayillar, bayramlarda ham uning maketi eng qiziqarli ko’r-gazma sifatida namoyish etiladi. Axir Temur bobomizni zamonaviy tilda gapitiradigan bo’lsak, qudratimizga shubha qiluvchilar bizning bugungi zavodlarimizni ko’rishsin.

– Turmush o’trog’im Ra’no To’xtamisheva Uchquduqdagi 2-“Quyoshjon” nomli MTTda tarbiyachi bo’lib ishlaydi, – deydi quvunch bilan qahramonimiz. – Yangangiz ishlayotgan bog’cha 2016 yilda joriy ta’mirlandi. Shunda mehnat ta’tiliga chiqib, bog’cha devorlariga o’zbek milliy e’tak qahramonlari suratlarini chizib berdim. Bu mening bog’cha ochilishiga bolajonlarga sovg’am bo’ldi. Odam hech kimdan qo’lidan keladigan yordamini ayamasligi kerak. Yaxshidan bog’ qoladi, deyishadiku. Mendan ham eslanarli iz qolsin deyman.

Husan akaning o’g’li Suyunboy ham ota kasbini tanlab, Samarkand davlat arxitektura va qurilish universitetini bitirdi. Ot izini toy bosar degan-dek, u ham padaribuzrukvorining ishtarini davom ettiryapti.

Layero KARIMOVA.

■ Oila – baxt maskani

Inson hayoti oiladan boshlanadi. Oila – mehr-muhabbat, hurmat va hamjihatlik asnosida jamiyatning ilk yacheykasini barpo etadi. Oilaning farovonligi mamlakat rivojining mezonini sifatida baholanadi. Navoiy mashinasozlik zavodining sanoat-sanitar laboratoriyasida faoliyat olib borayotgan Yulduz Ergasheva ibratli va namunali oilaning yorqin vakilidir.

SULOLA

vakillari baxtini fidokorona mehnatdan topyapti



Markaziy zavod laboratoriyasi tarkibiga kimyo analitik, spektr tahlili, metallografik, sanoat-sanitar laboratoriyalar va kanatlarni sinovdan o’tkazish stansiyasi kiradi. Sanoat-sanitar laboratoriyasi chang va gazlar tahlili laboranti Yulduz Ergasheva bu yerda ko’p yillardan beri ishlab kelmoqda.

– Zavodga ishga kelishimga oilam, ya’ni ota-onam, akalarimning o’rni katta. Chunki ularning barchasi shu zavodda faoliyat olib borishgan. Rahmatli otam Komilboy aka 33 yil elektr ta’mir-lash sexida chilangar, onam Norxol aya 22 yil elektr montyor bo’lib ishlashgan. Akalarim Jamol va Ilhom Xamrayevlar ham 20 yildan ortiq vaqt mobaynida biri quymachilik sexida eritish bo’lim boshlig’i, ikkinchisi rangli quyma uchastka ustasi bo’lib ishlab kelishmoqda. Zavod biz uchun qadrdon maskan desam adashmagan bo’laman, – deya suhbatni boshladi Yu.Ergasheva.

– 2008-yilda Navoiy konchilik kollejni oshpazlik yo’nalishida tugatib, zavodga oshpaz bo’lib kelganman, dadam va akamning tavsiyalariga ko’ra 2009-yilda zavod o’quv markazida uch oy o’qib, laboratoriyaga ishga o’tdim. Dastavval shogirdlikdan boshlab, ayni vaqtda chang va gazlar tahlili laboranti bo’lib ishlayapman. Asosiy vazifamiz sexlarning chiqindi manbalaridan atmosferaga chiqarilayotgan chang va zararli kimyoviy moddalar miqdorini xamda ish joylarining sanoat-sanitar holatini nazorat qilishdan iborat. 5-razradli chang va gazlar tahlili laboranti bo’lganim uchun

ishlab chiqarish korxonalari binolari havosining murakkab tahlili, changlanganligi sinovlarini, havo va gazlarning tezkor tahlilini o’tkazish, o’lchashga asoslangan hajmiiy tahlil metodlarini, laboratoriya jihozlariga xizmat ko’rsatish, tahlil natijalarini formula, jadval va grafiklarga asoslanib, hisoblashni bilishim shart. Malakamni oshirish va mutaxassis bo’lib yetishishimda Sh.Ashurova, S.Turobova, R.Hamdamov kabi tajribali insonlarning hisssasi katta.

Atrof tabiiy muhitni ifloslantiruvchi manbalar-niing raqamli texnologiyalar asosida zamonaviy ekologik monitoringini sifatli olib borishni ta’min-lash maqsadida laboratoriya eng zamonaviy gaz analizatori “ANT-3M”, mikroiklim o’lchagich “Me-teoskop-M” kabi uskunalar bilan jihozlangan...

– Turmush o’trog’im Farhod Ergashev bilan ham zavodda tanishganmiz. U kishi ayni vaqtda quymachilik sexining qoliplash uchastkasi ustasi bo’lib ishlab kelmoqdalar. Eng qizig’i, akam bilan yangam Nargiza Muhammadiyeva ham zavodda tanishib, turmush qurganlar, yangam ko’p yillar-dan beri quymachilik sexi pultchisi bo’lib ishlaydi. Shuning uchun hammamiz ishlayotgan zavodi-mizni chin dildan sevamiz, chunki Yaratgan biz-ga unda nafaqat rizqu ro’z, balki baxtimizni ham berdi...

Bu ibratli sulola vakillari halol mehnatlari orqali zavod rivojiga o’zlarining munosib hisslalarini qo’shib kelishmoqda.

A.AXMEDOVA suhbatlashdi

ТРЕТИЙ ГИДРОМЕТАЛЛУРГИЧЕСКИЙ – ПОЛИГОН ДЛЯ ВНЕДРЕНИЯ НОВЕЙШИХ ТЕХНОЛОГИЙ

В последние годы на Гидрометаллургическом заводе №3 (ГМЗ-3) Северного рудоуправления АО «Навоийский горно-металлургический комбинат» происходят значительные преобразования. Усилия специалистов предприятия направлены на то, чтобы ГМЗ-3 соответствовал самым высоким международным стандартам в области технологии, экологии и промышленной безопасности. Работа, которая здесь ведётся по внедрению передовых технологий, повышению эффективности производства и обеспечению устойчивого развития заслуживает особого внимания.

РАСШИРЕНИЕ КОМПЛЕКСА ФИЛЬТРАЦИИ, СУШКИ И ОБЖИГА

С 2017 года, в рамках реализации Указов Президента Республики Узбекистан и утверждённой программы по увеличению производства драгоценных металлов, на заводе началась реализация крупного инвестиционного проекта по усовершенствованию технологии извлечения золота из упорных (труднообогатимых) руд месторождений Кокпатас и Даугызтау. Этот проект стал результатом более чем 3000 научно-исследовательских и опытно-конструкторских работ, проведённых специалистами АО «НГМК».

В итоге, в 2019 году на ГМЗ-3 ввели в эксплуатацию уникальный производственный комплекс фильтрации, сушки и обжига, предназначенный для переработки хвостов сорбционного процесса – материалов, которые ранее считались отходами. Новая технология не имеет аналогов в мире и позволяет доизвлекать большое количество золота из этих хвостов, значительно повышая эффективность использования природных ресурсов. Эта разработка защищена патентом и удостоена золотой медали Всемирной организации интеллектуальной собственности – впервые в истории горно-металлургической промышленности Узбекистана.

Особенно важно то, что новый комплекс не только высокоэффективен, но и энергоэкономичен. В нём применены новейшие технологии утилизации тепла, снижено потребление природного газа

за счёт синтез-газа, внедрены частотные преобразователи для снижения энергопотерь. Все производственные процессы полностью автоматизированы: от фильтрации и сушки до обжига и очистки газа – вся система управляется из операторского центра.

– Экологическая безопасность – наш приоритет, – сказал начальник производственно-технического отдела ГМЗ-3 Алишер Усманов. – Установленная система многоступенчатой очистки отходящих газов позволяет улавливать до 99,99% вредных веществ, включая ангидриды мышьяка и серы. В атмосферу выходит практически чистый водяной пар, и мы гордимся тем, что можем сочетать высокую производительность с ответственным отношением к окружающей среде.

Благодаря внедрённым технологиям, общий уровень извлечения золота на заводе увеличился более чем на 15%, а из хвостов ежегодно дополнительно извлекается свыше 1,5 тонны золота.

В 2021 году на ГМЗ-3 также запустили установку сернокислотной обработки огарков, что позволило повысить степень извлечения золота из огарка на 5%. В декабре 2024 года внедрили технологию промывки огарков после сернокислотной обработки. В настоящее время по новому технико-экономическому обоснованию данного проекта предусмотрено расширение комплекса фильтрации, сушки и обжига – строятся четвёртый фильтр-пресс и третий сушильный барабан, которые будут завершены в этом году. А также ведутся работы по увеличению производительности печи обжига.

Особую гордость вызывает тот факт, что в результате реализации проекта на ГМЗ-3 созданы более 250 новых рабочих мест и в будущем их число будет увеличиваться. Это вклад не только в экономику предприятия, но и в социальное развитие Учкудукского региона.

ЦЕЛЬ – УВЕЛИЧЕНИЕ ПРОИЗВОДИТЕЛЬНОСТИ

В целях увеличения производительности ГМЗ-3 до 10 млн тонн руды в год, в соответствии с технико-экономическим обоснованием проекта «Добыча руды на золоторудных месторождениях Кокпатас и Даугызтау. III очередь», в 2024 году на заводе осуществлено строительство новых мельничных блоков № 7 и 8. В связи с этим также выполнено расширение цеха флотации – построена пятая цепочка межцикловой флотации. В настоящее время суточный объём переработки руды увеличился с 25 до 28 тысяч тонн.

В связи с увеличением объёма переработки руды, соответственно, увеличился объём выпускаемого из цеха флотации концентрата. Для переработки дополнительных объёмов флотационного концентрата проведены работы по расширению цеха биоокисления, в частности, строительству и запуску в эксплуатацию двух новых модулей в январе 2025 года. Если раньше цех биоокисления состоял из 8 модулей с 6 реакторами по 900 кубометров каждый, то со строительством дополнительных модулей общее количество реакторов теперь насчитывает 60 единиц.

Надо отметить, что НГМК по объёму и количеству реакторов в цехе биоокисления стоит на первом месте в мире!

В реакторах с участием бактерий происходит процесс бактериального окисления сульфидов, что значительно оптимизирует дальнейший процесс сорбции, и, соответственно, увеличивает извлечение драгоценного металла. Процесс бактериального окисления длится 120 часов при температуре 42 ± 2 градусов. Для поддержания данной температуры в реакторах установлена система охлаждения пульпы в виде змеевиков, по которым

циркулирует вода, охлаждаемая в современных градирнях – двух трёхсекционных и одной пятисекционной. В связи со строительством дополнительных модулей биоокисления с 12-ю реакторами возникла необходимость строительства ещё одной трёхсекционной градирни. В настоящее время заканчивается её строительство и в ближайшее время она будет запущена в эксплуатацию. Это позволит поддерживать рабочую температуру в реакторах, что является важным фактором для достижения высоких показателей окисления упорных руд.

ЭФФЕКТИВНОЕ ВОДОПОЛЬЗОВАНИЕ – КЛЮЧЕВОЙ ПРИОРИТЕТ

Гидрометаллургический завод №3 расположен в самом сердце пустыни Кызылкум, где доступ к водным ресурсам крайне ограничен. При этом, технологический процесс переработки сульфидных руд требует постоянного добавления значительных объёмов технической воды. Это ставит перед специалистами завода важную и стратегическую задачу – максимально эффективно использовать имеющиеся ресурсы, внедрять принципы замкнутого водооборота и минимизировать потребление свежей воды.

Одним из компонентов заводской инфраструктуры является хвостовое хозяйство. Оно предназначено не только для складирования отходов переработки руды, но и выполняет функцию накопителя отработанной воды. Потенциально – это важный резервуар для возврата воды обратно в технологический процесс. Однако, вода, находящаяся в прудке хвостохранилища, содержит высокий уровень растворённых химических элементов и соединений, которые затрудняют её прямое повторное использование.

В связи с этим, согласно проекту расширения ведутся работы по строительству новой карты хвостохранилища, где хвосты (отработанные воды) процессов сорбции огарков, флотации, нейтрализации будут складироваться отдельно. Появится возможность использования их в качестве оборотной воды.



Но в связи с тем, что завершение строительства данной карты планируется во втором полугодии 2026 года, на сегодняшний день специалистами Центральной научно-исследовательской лаборатории и Центральной заводской лаборатории ведётся исследовательская работа по доведению состава воды прудка хвостохранилища до состава технической воды. Это позволит не только существенно сократить потребление свежей воды, но и обеспечить экологическую безопасность всего водооборота предприятия.

– Важно понимать, что реализация проекта по возврату очищенной воды в цикл – это не просто мера ресурсосбережения, – говорит главный технолог ГМЗ-3 Зухриддин Сирохов. – Это элемент устойчивого развития всего нашего завода. Это вклад в экологическую стабильность региона. Это пример того, как промышленность может и должна действовать – ответственно, уважая природные ограничения и работая на будущее.

По предварительным оценкам, внедрение системы очистки позволит сокра-

тить расход свежей воды, что, к тому же, существенно повлияет на себестоимость продукции, обеспечит стабильность водоснабжения даже в засушливые периоды, и в то же время значительно снизит воздействие на окружающую среду.

Эффективное водопользование – это ключевой приоритет для любого современного предприятия. И ГМЗ-3 стремится быть примером ответственного подхода к природным ресурсам, сочетая производственную эффективность с экологической осознанностью.

Но специалисты ГМЗ-3 не останавливаются на достигнутом. Параллельно здесь реализуются проекты по локализации расходных материалов – от фильтров и компенсаторов до насосного оборудования. Это снижает зависимость от импорта и поддерживает отечественных производителей. Словом, специалисты ГМЗ-3 всегда в поиске новых решений, инженерная мысль всегда в действии, а это верный путь к прогрессивному развитию.

Насиба ШАМУРАТОВА.

■ Dolzarb mavzu

RAQAMLASHTIRISH
TARAQQIYOTNING YANGI KO'RINISHI

■ Oxiri. Boshlanishi 1-betda

Oxirgi yillarda sun'iy intellekt haqida ko'p eshitaymiz. Go'yoki bu sun'iy idrok taraqqiyotni belgilab beruvchi omidek, nazarimizda. Sun'iy intellekt hayotimizning ajralmas qismiga aylanib ulgurmoqda. Ilm-fan hozir ko'p jabhalarda sun'iy intellektga tayanmoqda.

Ishlab chiqarishning turli jabhalarida sun'iy intellektni qo'llash tobora kengayib borayapti. Shunday texnologiya asosida kombinatda ko'plab loyihalar ishga tushmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 14-oktabrdagi "2030-yilgacha sun'iy intellekt texnologiyalarini rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PQ-358-son qarori hamda "NKMK" AJ ning 2024-yil 6-fevraldagi "Sun'iy intellekt texnologiyalarini qo'llash to'g'risida"gi 594-son buyrug'iga asosan tog'-kon sanoatida sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanishning global tendensiyalari tahlil qilindi. Unda sun'iy intellektga asoslangan dasturiy mahsulotlar va xizmatlar ulushini ko'paytirish, texnik infratuzilmani kengaytirish, kadrlar salohiyatini oshirish kabi qator chora-tadbirlar belgilangan.

Bugungi kunda "NKMK" AJ sohaning yetakchi korxonasi sifatida 2030-yilgacha mo'ljallangan raqamli strategiyasini amalga oshirmoqda. Ushbu strategiya maqsadlariga erishish uchun korxona hozirdan raqamli texnologiyalar va sun'iy intellektni joriy etgan holda bir qator yechimlarni qo'llamoqda. Jumladan, ilg'or xalqaro tajribaga asoslanib, sun'iy intellekt tizimlarini joriy etish orqali optimallashtirilishi mumkin bo'lgan asosiy ishlab chiqarish va yordamchi jarayonlarni aniqlash ko'zda tutilgan. Sun'iy intellektdan foydalanish bugungi kunda kompaniyaning yanada barqaror rivojlanishini ta'minlash uchun strategik yo'nalish hisoblanadi.

Sun'iy intellekt texnologiyalari turli sohalarga faol joriy etilmoqda va xodimlarni boshqarish sohasi ham bundan mustasno emas. "NKMK" AJ Kadrlar boshqarmasi xodimlari sun'iy intellektga asoslangan ilg'or vositalardan foydalanishmoqda. Bu, ularga kundalik vazifalarni tez va samarali bajarishga yordam berib, yuqori ish sifatini ta'minlash va ularning ishdan qoniqish darajasini oshirishga xizmat qilmoqda. Xodimlarni boshqarishda sun'iy intellektdan foydalanish kadrlar ma'lumotlarini nazorat qilish, o'quv dasturlari va test

sinovlarini tuzish, xodimlar uchun so'rovnomalari o'tkazish, turli hujjatlarni yaratish kabi jarayonlarni avtomatlashtirish imkonini beradi. Bu orqali soha mutaxassislari yanada murakkab va muhim vazifalarni bajarish, xizmat ko'rsatish sifatini yaxshilashga e'tibor qaratishlari mumkin. Shuningdek, sun'iy intellekt Inson resurslari departamenti mutaxassislari uchun katta hajmdagi ma'lumotlarni tahlil qilish, tendensiyalarni aniqlashda ishonchli yordamchiga aylanadi, bu esa xodimlarni ishga qabul qilish, o'qitish va rivojlantirish bo'yicha yanada asoslangan qarorlar qabul qilish imkonini beradi. Bu qulay ish muhitini yaratish, korporativ madaniyatni mustahkamlash va xodimlarning o'z ishdan qoniqish darajasini oshirishga yordam beradi. Shunday qilib, xodimlarni boshqarishda sun'iy intellektdan foydalanish ushbu muhim xizmatni rivojlantirish uchun yangi imkoniyatlarni ochadi va kompaniyaning mehnat bozoridagi raqobatbardosh ustunliklarini ta'minlaydi.

"NKMK" AJda sun'iy intellektdan foydalanigan holda "Video-tahlil asosida shaxsiy himoya vositalarini boshqarish" axborot tizimini ishlab chiqish bo'yicha ishlarning to'liq bajarilishi ta'minlanyapti. Ushbu tizimning joriy etilishi ishlab chiqarish maydonlarida sodir bo'ladigan jarohatlanishlarni kamaytirishga olib keladi. Uning afzalliklari shundaki, video kuzatuv tizimi yordamida ishlab chiqarish maydonini doimiy masofaviy nazorat qilishni ta'minlaydi. Qolaversa, muntazam ravishda xavfli vaziyatlar yuzaga kelishi mumkin bo'lgan sabablarni kuzatib borib, barcha mavjud ma'muriy va texnik vositalardan, shu jumladan video kuzatuv tizimidan xavflarni kamaytirishga erishiladi.

So'nggi yillarda "NKMK" AJ tarkibidagi Shimoliy kon boshqarmasida ishlab chiqarish jarayonlarini raqamlashtirish va avtomatlashtirish borasida amaliy ishlar izchil ravishda olib borilmoqda. Jumladan, kon texnikasiga xizmat ko'rsatish va ta'mirlash ishlarini samarali boshqarish maqsadida 1S:TOIR (Texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlash) axborot tizimi joriy etildi.

Ushbu tizimni joriy etishdan asosiy maqsad — texnik xizmat va ta'mirlash jarayonlarini rejalashtirish, bajarish va nazorat qilishni avtomatlashtirish orqali texnika ishonchligini oshirish va ekspluatatsiya xarajatlarini kamaytirishdir. Hozirda 1S TOIR tizimi orqali 100 dan ortiq avtoag'dargich, ekskavator va burg'ilash

uskunalari qamrab olingan.

Tizimning muhim afzalliklaridan biri — mobil ilova orqali texnik ko'rik natijalarini real vaqtda yuborish, avtomatik ravishda yoki dispatcher nazorati ostida ta'mirlash buyurtmalarini shakllantirish imkoniyatidir. Shu orqali qog'ozbozlik kamayib, ta'mirlash ishlari vaqtida va sifatli bajarilishi ta'minlanmoqda.

Bugungi kunda 1S TOIRning server va infratuzilmasi to'liq ishga tushirilgan bo'lib, ta'mirlash bo'yicha barcha ichki hujjatlar, hisobotlar va texnik kartalar tizim orqali shakllantirilmoqda.

Bu kabi raqamlashtirish ishlari nafaqat samaradorlikni oshirmoqda, balki mehnatni muhofaza qilish, xavfsizlik, resurslarni tejash va ishlash muhitini yaxshilashga ham xizmat qilmoqda.

Har qanday korxonada barqaror ishlab chiqarishni ta'minlash uchun texnologik jarayonlarni modernizatsiya qilish yo'llarini izlash talab etiladi. Bu boradagi istiqbolli yo'nalishlardan yana biri 7-gidrometallurgiya zavodida sun'iy intellektning joriy etilishidir. Mazkur loyiha texnologik jarayonlarning samaradorligi va barqarorligini oshirish uchun qo'l kelmog'ida. Sun'iy intellekt tizimlari real vaqt rejimida katta hajmdagi ma'lumotlarni tahlil qilish va texnologik jarayonlarning borishini tahlil qilish imkoniyatiga ega. Bu esa o'z navbatida zavod texnologik jarayonlarining barqarorligini ta'minlash, ishlab chiqarish ko'rsatkichlarini optimallashtirish, mahsulot sifatini yaxshilash, mehnat unumdorligini oshirish va ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish imkonini beradi. Shuningdek, sun'iy intellekt yordamida zavod texnologik uskunalarining (maydalagichlar, tegirmonlar, nasoslar va boshqalar) ish holatini kuzatish va yuzaga kelishi mumkin bo'lgan nosozliklarni oldindan aytish mumkin. Bu, uskunalarining to'xtab qolish vaqti va ta'mirlash xarajatlarini kamaytiradi, o'z navbatida uskunalarining xizmat qilish muddatini uzaytiradi. Xulosa qilib aytganda, sun'iy intellekt texnologiyalari — bu nafaqat zamonaviy texnologiya, balki gidrometallurgiya zavodining ishlashini sezilarli darajada o'zgartira oladigan kuchli vositadir. Uning joriy etilishi nafaqat samaradorlik va iqtisodiy daromadni oshirish, balki yanada barqaror va ekologik xavfsiz ishlab chiqarishni yaratish imkonini beradi.

Dildora KARIMOVA suhbatlashdi.

■ Oramizdagi odamlar

Markaziy kon boshqarmasining "Ishlab chiqarish — texnik va innovatsion" xizmati kon boshqarmasi bo'linmalari mutaxassislari bilan hamkorlikda innovatsion, ratsionalizatorlik, ixtirochilik, yangilikni patentlash, ilmiy tadqiqot va tajriba — konstruktorlik faoliyati bilan bog'liq ishlarni amalga oshiradi. Kon boshqarmasida ratsionalizatorlik va ixtirochilik takliflarini chuqur o'rganish hamda joriy etishga alohida e'tibor qaratilmoqda. O'tgan yili va 2025 yilning besh oyida qirqqa yaqin ratsionalizatorlik takliflari ishlab chiqarishga joriy etilib, iqtisodiy samaradorlikka erishilmoqda.

ENERGETIK
BARQARORLIK SARI

"2-gidrometallurgiya zavodi maydalash sexi tegirmonlari sinxron elektrdvigatellarning podshipniklari haroratini nazorat qilish avtomatikasini takomillashtirish" mavzusidagi ratsionalizatorlik taklifi zavod bosh energetigi Rustam Jabborov tomonidan ishlab chiqilib, ishlab chiqarishga tatbiq etilgan. Mazkur taklifda 2-GMZ ning maydalash sexidagi 78 ta tegirmondan 66 tasida qo'llanilayotgan yuqori quvvatli sinxron elektrdvigatellarning podshipniklari haroratini avtomatik tarzda kuzatish va barqarorlikni ta'minlash bo'yicha texnik yechim taqdim etildi. Ekspluatatsiya jarayonida moylash tizimiga turli buyumlar tiqilib qolishi yoki undagi nosozliklar tufayli podshipniklar me'yorida ortiq qizib ketishi kuzatiladi va bu

ham tegirmonlarning rejadani tashqari to'xtab qolishiga olib keladi. Ratsionalizatorlik taklifi asosida mavjud avtomatlashtirilgan skalyar-dispatcherlik boshqaruv tizimi va SCADA TIA Portal tizimi orqali har daqiqada podshipnik haroratini kuzatish hamda belgilangan me'yordan oshganda operator va texnik xodimlarga ogohlantirish signallarini yetkazish tizimi joriy etildi. Bu, o'z navbatida ishlab chiqarishdagi uzilishlarning oldini olish, barqarorlikni ta'minlash va samaradorlikni oshirishga xizmat qilmoqda. Tizimda harorat 72°C dan oshib ketsa, ekranda avariya belgisi paydo bo'ladi, shu bilan birga ovozi va yoritgichli signallar orqali navbatdagi mutaxassislar xabardor qilinadi. Bu esa ularga aniq va tezkor chora ko'rish, podshipniklardagi qizib ketish va tegirmonlarning to'xtab qolishi holatlarini bartaraf etish imkonini beradi. Mazkur ratsionalizatorlik ishida Rustam Jabborov bilan bir qatorda, muhandis-elektronik Jamshid Raimov va dasturchi muhandis Sarvar Mizrobovlar ham faol ishtirok etishgan. Ular jamoaviy ish tarzida amalga oshirilgan ushbu taklif orqali texnologik jarayonlarni optimallashtirishga ulkan hissa qo'shdilar.

Har bir daqiqani qadrlaydigan mutaxassislar mehnati tufayli, tegirmonlarning faoliyati yanada barqarorlashdi, rejadani tashqari to'xtab qolishlar kamaydi va xizmat ko'rsatish vaqti tejalmoqda.

Bundan tashqari, Rustam Jabborov 2-GMZ ishlab chiqarishi doirasida "Yuritmasida o'rnatilgan elektrdvigatel tezligini oshirib, ohaktosh kuydirish pechlarida ohak ishlab chiqarish hajmini ko'paytirish", "Maydalash sexi nasoslari gidrotinqlarida texnik suv bosimini oshirish" kabi ratsionalizatorlik takliflarida ham faol ishtirok etgan. Ishlab chiqarishga joriy etilayotgan bunday ratsionalizatorlik takliflari mutaxassislarning salohiyatini namoyon etibgina qolmay, balki innovatsiyalarni hayotga tatbiq etilishida muhim asos bo'layapti.

Aziza IRISOVA.

JAMOAGA BOSH
BO'LIB

Bugun barcha sohalarda xotin-qizlarimizning faol ishtiroki bor. Konchilik va metallurgiya yo'nalishida ham ko'plab ayollarimiz zahmatli mehnati bilan boshqalarga namuna bo'lishmoqda.



Mana 25 yildirki, Tomdi tumanidagi ziyoli oila farzandi bo'lgan Janar Joldibayevaning mehnat faoliyati metallurglar orasida kechmoqda. Bundan chorak asr muqaddam Navoiy davlat konchilik institutining metallurgiya yo'nalishini davlat granti asosida tugallab, oliy ma'lumotli mutaxassis diplomini olgan Janar Temirbekovna ilk ish faoliyatini Markaziy kon boshqarmasi 2-gidrometallurgiya zavodining markaziy laboratoriyasida chang va gazlar tahlili laboranti vazifasida boshladi. Yosh mutaxassis ko'plab kasb fidoyilarining tajribalarini o'rgandi, shuningdek, korxonada uzoq yillar ishlab kelayotgan laborantlarning ish uslublarini o'zlashtirishga intildi. Malakasi oshib borganligi tufayli 2011-yilda Mehnat sharoitlari nazorati va atrof-muhitni muhofaza qilish markaziy laboratoriyasining Chang-gaz laboratoriyasi boshlig'i etib tayinlandi. Ayni vaqtda u zavodda mehnat sharoitlari nazorati va korxona faoliyatining atrof-muhitga zararli ta'sirini kamaytirishga yo'naltirilgan tashkiliy-texnik chora-tadbirlar, reja va talabnomalar asosida monitoring o'tkazishga boshchilik qilayapti.

— Zavodda mehnat muhofazasi va texnika xavfsizligiga e'tibor qaratilgan. Laborantlarimiz mehnat sharoitlari va atrof-muhit muhofazasi monitoringi uchun zarur bo'lgan laborator tarozi, fotokolorimetrlar, gazoanalizatorlar, aspirator, rN metr, manometr kabi o'lchov vositalari bilan ishlashadi. Ish jarayonida xavfsizlik talablaridan kelib chiqib ishchilarning maxsus kiyimlar, shaxsiy himoya vositalari bilan ta'minlanganligiga ahamiyat beraman. Ish unumdorligiga erishishda xodimlarning kayfiyati ham muhim rol o'ynaydi. Buni e'tibordan qoldirmaslik kerak. Har bir ishga mas'uliyat bilan yondashsangiz, bilim va tajribangizni sarflasangiz yaxshi natijaga erishasiz. Albatta, chinakam fidoyilik hech qachon besamar ketmaydi, — deydi Janar Joldibayeva.

Albatta, har bir kasb sharaflari. Janar Joldibayeva samarali mehnati orqali obro'-e'tibor topib, Navoiy kon-metallurgiya kombinatining 3-darajali "Konchilik shuhrati" ko'krak nishoni bilan taqdirlangan.

Nafosat ZIYOYEVA.

■ К международному дню архивов

9 июня отмечается Международный день архивов, учреждённый Международным советом архивов в 2007 году на генеральной Ассамблее в Канаде. Эта дата широко отмечается как профессиональный праздник всеми работниками архивного дела. Но эта дата также установлена для привлечения внимания широкой общественности и лиц, принимающих решения, к достижениям и проблемам архивного дела.

ХРАНИТЕЛИ ИСТОРИИ В
СОВРЕМЕННОМ МИРЕ

На архивных полках прячется целая история, целая эпоха. Как часто маленький листок с этой полки меняет судьбу, достаток, становится единственным доказательством правды. Ценность документа настолько неоспорима, что это понимали в давние времена и правители, и деятели просвещения, науки и культуры. Положительным и заслуживающим внимания является то, что тогда составление, хранение и передача документов поручали самому грамотному и самому ответственному работнику.

Начало созданию сети архивов в Навоийском горно-металлургическом комбинате было положено в 1977 году с образованием отдела фондов научно-технической и общей документации. С тех пор сеть архивов НГМК разрослась. И в 2001 году приказом генерального директора комбината было введено в организационную структуру комбината самостоятельное подразделение - Центральный архив НГМК.

Архив является не просто местом для хранения первоисточников — это, прежде всего, люди, которые честно и профессионально делают свою работу. На сегодняшний день в Центральном архиве трудятся 7 специалистов своего дела. И, конечно же, хочется отметить работу каждого из них. Джураева Азиза Тошпулатовна, Платонова Юлия Александровна — хорошие специалисты в сфере бухгалтерии. Они — это своевременность и ответственность, качественная и без ошибок работа, грамотный подход к решению возникающих вопросов. Козина Наталья Александровна, Адизова Сурайё Низомовна, Салимбетова Альбина Искандарбековна — архивисты и архивариусы Центрального архива, которые отличаются особой внимательностью и усидчивостью, не боятся большого количества бумажной работы. Исаева Гулбахор Низомовна — архивист, который на сегодняшний день имеет свидетельство о профессиональной компетентности по определению ценности документов предприятия в целях их отбора для дальнейшего хранения. Все эти люди делают свою работу самоотверженно, понимая значимость и полезность своего труда.

На сегодняшний день в сфере архивного дела идёт большой прогресс. Внедрены научно-практические разработки в сфере ИКТ, улучшаются практические качества процесса обучения специалистов-архивистов в сфере ИКТ, а также качество подготовки кадров, ответственных за архивное дело. Во всех подразделениях НГМК введена и активно используется информационная система оцифрованных документов «Электронный архив», работа над которой специалистами архивов ведётся ежедневно. Но самая основная задача всех архивов заключается в своевременном и качественном оказании архивных услуг. Дело, которое делает архивист, важно для общества, хотя часто остаётся обществу неизвестным. Ежедневно архивисты выполняют сложную и трудоёмкую работу по пополнению архивных фондов новыми документами, обеспечению сохранности значимых документов, источников, использованию их в научных целях. Трудно переоценить значение постоянной и кропотливой работы архивистов по подготовке и выдаче необходимой информации.

На сегодняшний день в Центральном архиве НГМК сформированы 33 фонда, в состав которых входят документы по основной деятельности комбината. Это геологическая документация, научно-техническая документация, документы по основной деятельности предприятия постоянного срока хранения и документы по учёту личного состава работников НГМК, которые по истечению сроков временного хранения в архиве предприятия в установленном порядке передаются в Государственный архив.

В XXI веке роль архивов в информационном обеспечении общества велика как никогда. Если требуется подтверждение трудового стажа, размера заработной платы для оформления пенсии, восстановление утерянных документов, если необходимо подтвердить свои права на получение государственной награды, нужны сведения о каких-либо юридических сделках, финансовых операциях, для написания диссертаций и т.п. — человек обращается в архив. В Центральном архиве, помещения которого располагаются на трёх этажах управления НГМК, хранятся около 90 тысяч книг с различными документами предприятия — это самый большой по объёму архив документов комбината. И сотрудники архива можно смело назвать специалистами широкого профиля, ведь принимая и изучая состав документов, они узнают о специфике работы всех отделов комбината. Любому специалисту могут найти необходимый документ — и юристу, и технологу, и геологу, и строителю и т.д. Помогают с подборкой документов тем, кто занимается научными работами. Задача наших архивистов — сохранить этот ценнейший документальный массив и организовать его использование.

Коллектив Центрального архива сплочён единой целью, приоритетами и стремлениями, несмотря на разные характеры, темпераменты, увлечения. В наш век быстрых перемен команда Центрального архива оперативно реагирует на изменения, любит учиться новому. Регулярно проходят курсы обучения по повышению квалификации в Научно-методическом центре при Агентстве «Узархив» в городе Ташкенте, оказывают методическую помощь архивам подразделений комбината.

В подразделениях комбината также существуют архивы, в которых честно и профессионально, с большим энтузиазмом и терпением делают своё большое дело специалисты по архивному делу, а также работники делопроизводства, которые являются источниками комплектования архивов. Хотелось бы отметить показательную работу архивов следующих подразделений: Производственного объединения «НМЗ» под руководством заведующей Х.И.Ураковой, Рудоуправления «Кизилкум» под руководством Э.Д.Хамроевой, архивы Северного рудоуправления — архивисты Ю.М.Хамроева, А.Т.Иночкина, Т.И.Сунатова, архив Управления автоматизации и производства ЦП КИПиА — Г.С.Нурназарова, а также архивы Центрального рудоуправления — Н.Х.Муродова, З.Р.Вахобова.

Деятельность архивариусов требует внимательности, концентрации и скрупулёзности, знания множества инструкций, связанных со сроками, правилами и перечнем хранения необходимой информации.

С увеличением объёма информации и ужесточением требований к документообороту специалисты, которые умеют эффективно управляться в архиве, становятся необходимыми во многих организациях.

Выражаем искреннюю признательность за Ваш вклад в развитие архивного дела, за ту частичку души, которую Вы вкладываете в любимое дело. Желаем Вам понимания важности и значимости вашего дела со стороны работников и общества. Пусть работа приносит радость и удовлетворение, обогащает знаниями и жизненной мудростью. Пусть архивы памяти хранят только добрые и светлые воспоминания, пусть с каждым днём твоя архивная работа будет наполнена успехом, счастьем, любовью и радостью, дорогой архивист!

Ирина МАЛЯКОВА,
начальник Центрального архива
АО «Навоийский ГМК».

■ Dardli satrlar

“NKMK” AJda faoliyat yuritayotgan yoshlar bilan Qoraqalpogʻistonning Moʻynoq tumanida, shundoqqina Orolning yonginasida daraxt koʻchatlari oʻtqazdik. Orolning mahzun manzarasi meni ham qaygʻuga soldi.

Orol bilan suhbat

Ulkan choʻl bagʻrida koʻz ochgan Orol,
Moviyo toʻlqinlaring bunchalar gʻamgin?!
Qachondir sollangan, rangin sollangan,
Sahro yoʻlbarsiday pishqirgan zilol,
Toshqin ohanglaring, kuying qaydadir?!

Savolim tarixning yoqasin tutar:
Qancha uyga beminnat kirgan kamtarin.
Ona tabiatga sodiq doʻst boʻlib,
Lojuvard mavjlangan, oʻktam mavjlangan,
Shoshqin toʻlqinlaring, suying qaydadir?!

Orol sollanadi – ulugʻvor dengiz,
Tarixni yashagan moʻysafid misol.
Va yetim boladek koʻzlari maʼyus,
Va choʻlda chanqagan musofirdek lol:

“Mendan koʻrgan yomon koʻying qaydadir?!”

Bagʻrim xun, tilimda aylanmas alif,
Boshim xam nuroniy dengiz qoshida.
Darvoqe, dengizmas, Mozori sharif,
Kemalar qoʻyilmish qabrtoshiga,
Baliqlar choʻmilgan kuning qaydadir?!

Men ham bir bolangman – qadring istagan,
Toptalgan oringga malham boʻlgim bor.
Umidim Orolim bagʻringda yana,
Nihollar boʻy choʻzsin samoga takror,
Bagʻringda toʻlqinlar pishqirsin yana...

Feruzjon GʻAFUROV,
Shimoliy kon boshqarmasi Yoshlar ittifoqi yetakchisi.

■ Mehnat jamoalarida

Biz rivojlangan texnika va texnologiya asrida yashayapmiz. Zamonaviy korxonani rivojlangan va ishonchli axborot-kommunikatsiya infratuzilmasisiz tasavvur etib boʻlmaydi. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari hozirgi kunda ilmiy-texnik taraqqiyotning lokomotivi boʻlib, butun dunyoni egallamoqda.



ZAMONAVIY AXBOROT ASRI

2023-yilning 1-iyunida Markaziy kon boshqarmasiga qarashli Axborot kommunikatsiya texnologiyalari markazi “NKMK” AJ Axborot kommunikatsiya texnologiyalari boshqarmasi tarkibiga kiritildi. Guruh va boʻlimlar transformatsiya qilinib, yangilari tashkil qilindi. Hozirgi kunda markazimizga malakali mutaxassis, texnika fanlari nomzodi Husan Saliyev boshchilik qilmoqda.

Markazimizda ayni vaqtda 8ta boʻlim va 5ta guruhda 130 nafar odam faoliyat olib bormoqda. Axborot tizimlarini kuzatish, Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini monitoring qilish va boshqarish, Telekomunikatsiya tizimlarini ishlatish va kuzatish, Servis xizmat koʻrsatish “Zarafshon” “Bessopan”, “Zarafshon qurilish boshqarmasi”, “Muruntov” va “OUEO’S” koni boʻlimlarida tajribali ustozlar, malakali mutaxassislar va iqtidorli yoshlar rivojlanib borayotgan sohaga oʻz hissalarini qoʻshishmoqda. Ishchi-xodimlarimizning asosiy maqsadi, nafaqat aloqa tizimlarining uzluksizligini taʼminlash, balki yangi texnologiyalarni joriy etish, axborot tizimlarini kuzatish, monitoring qilish va shu bilan bir qatorda mukammal xizmat koʻrsatishdir.

Axborot tizimlarini kuzatish boʻlimida ish jarayonlarini optimallashtiradigan va samaradorligini oshiradigan turli dasturlar ishlab chiqilib, amaliyotga joriy etilmoqda. Bugungi kungacha “E-Med” - tibbiy koʻrikdan oʻtganligini belgilash, “ID Guvohnoma”-xodimlarni elektron identifikatsiya qilish, Yoʻl harakati qoidalari va yoʻl belgilari boʻyicha bilimlarni baholash hamda “Yigʻilgan yuqori bosim shlanglari katalogi chizimlarini saqlash va qayta ishlash” kabi dasturlar tayyorlanib, muvaffaqiyatli amalga oshirildi. Hozirgi vaqtda sunʼiy intellekt asosida axborot tizimida “Raqamli maslahatchi”, yaʼni ishlab chiqarishni ovozi boshqarish, “Muruntov” konida mehnatni muhofaza qilish va xavfsizlik texnikasi boʻyicha bilimlarni sinovdan oʻtkazish dalolatnomalarini roʻyxatdan oʻtkazish, kon-transport kompleksini boshqarishni avtomatlashtirish, konchilik obyektlariga texnik xizmat koʻrsatish va taʼmirlash kabi innovatsion dasturlar ustida izlanishlar olib borilmoqda. Axborot-kommunikatsiya texnologiyala-

rini monitoring qilish va boshqarish boʻlimining asosiy vazifasi AKT tizimlari, jumladan, serverlar, tarmoq uskunolari, maʼlumotlar bazalari, zaxira tizimlari, korporativ xizmatlarning barqaror hamda samarali ishlashini taʼminlashdan iborat. Boʻlim nafaqat infratuzilmalarni boshqaradi, balki xavfsizlik va ishlashning zamonaviy talablariga javob beradigan yangi tizimlarni ishlab chiqish, modernizatsiya va joriy etish ishlari bilan ham shugʻullanadi. Bundan tashqari, yangi AKT tizimlarini joriy etadi, texnik yechimlarning korporativ standartlarga mosligini nazorat qiladi va boshqa boʻlimlar bilan birgalikda muvofiqlashtiruvchi funksiyalarni amalga oshiradi. Ayni vaqtda boʻlimning malakali muhandislari ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlashtirish, raqamli transformatsiya, server va tarmoq infratuzilmasi, virtualizatsiya tizimlari, IP-telefon, videokuzatuv tizimlari, kirish kontrollerlari va raqamli infratuzilmalarni korporativ AKT muhitining xavfsizlik darajasini oshirishga qaratilgan muhim loyihalar ustida ish olib borishmoqda.

Telekommunikatsiya tizimlarini ishlatish va kuzatish boʻlimining “Zarafshon”, “Bessopan”, “Muruntov” va Radioelektron aloqa quрилmalariga xizmat koʻrsatish guruhlari kon boshqarmasining barcha boʻlinmalaridagi telekommunikatsiya vositalarini uzluksiz hamda sifatli ishlashini taʼminlash bilan birga 1800 ta stasionar, avtomobil va mobil radio quрилmalariga, shuningdek, optik tola va radioreleli simsiz aloqa tizimlari orqali MKB boʻlinmalarining texnik va texnologik kartalarga asosan avtomatik telefon stansiyalarga ulangan barcha kompleks telekommunikatsiya quрилmalariga xizmat koʻrsatadi. Maʼlumotlarni uzatish, shuningdek, “NKMK” AJ maydonlararo telekommunikatsion quрилmalarining ulanishi va avtomatik telefon stansiyalarining sifatli hamda ishonchli ishlashini taʼminlash ham ularning asosiy vazifasi hisoblanadi.

Servis xizmat koʻrsatish jamoasi zimmasiga “OUEO’S”, “Muruntov”, “Zarafshon”, “Bessopan” va “ZQB” boʻlimlari tomonidan kompyuter texnikalari, server va tarmoq quрилmalari, korporativ lokal hisoblash tarmogʻi va kompyuter texnikalariga servis xiz-

■ Shifokor maslahati

PARAZIT KASALLIKLARIDAN SAQLANING

Respublikamizda eng koʻp tarqalgan kasalliklardan biri gijja kasalliklari hisoblanadi. Maʼlumotlarga qaraganda, bu kasallik har yili 200 mingdan ortiq bemorlarda laboratoriya yoʻli bilan aniqlanadi. Shulardan 90 foizini bolalar tashkil qiladi. Hozirgi kunda odamlar, hayvonlar va oʻsimliklarning hisobiga yashovchi parazitlarning 15 mingdan ziyod turi maʼlum va insonlarda koʻprok lyamblya, askarida, ostriitsa, qilibosh gijjalar uchraydi. Gelmintlar odam organizmining nafas olish, ovqat hazm qilish, muskul sistemasida, jigra, oʻt pufagi, taloq, qon, miya, koʻz va boshqa organlarida parazitlik qiladi. Ular turiga qarab turli usullarda yuqishi mumkin. Masalan, askaridalar, asosan, qoʻlini yaxshi yuvmaydigan bolalarda koʻp uchraydi. Ostritsalar esa oziq-ovqat mahsulotlari hamda ogʻiz va burunga tushadigan chang orqali yuqadi.

Gijjalarning xili, soni va qaysi organ-da parazitlik qilishiga qarab kasallik har xil kechadi. Parazitlar bilan zararlangan odamning vazni kamayadi, qorinda ogʻriq, koʻngil aynishi, ich ketishi yoki bosh aylanishi, jizzakilik paydo boʻladi. Gijja ichakda boʻlsa – ich qotishi yoki ketishi, koʻngil aynishi, qayt qilish holatlari kuzatiladi. Jigarda boʻlsa – koʻz oqi va badan sargʻayadi, shish paydo boʻladi, badanga har xil dogʻlar tushishi mumkin. Oʻpkada boʻlsa - isitma chiqishi va yoʻtal paydo boʻlishi mumkin. Shuningdek, odamning mehnat qobiliyati pasayadi, bolalarda rivojlanish orqada qoladi, yaxshi oʻsmaydi, xotira pasayadi,

uyqusi notinch boʻladi.

Hozirda eng koʻp uchrayotgan parazit turi bu – lyamblya hisoblanadi. U oʻzidan-oʻzi odam organizmida koʻpayadi. Ishthasizlik, nonushta qilishga qiynalish, kun boʻyi och qorinda yurish, bolalarda injiqlik, jizzakilik, ich ketishi va qotishi lyamblyaning alomatlari boʻladi. Lyamblyani koʻpincha klizma qilishadi, xolbuki, uni yoʻqotishda klizma befoyda. Chunki klizma lyamblya oʻrnashgan joygacha yetib bormaydi. Lyamblya oʻt yoʻllarida, oʻn ikki barmoqli ichakda koʻproq parazitlik qiladi. Taom tanovul qilganimizda, ovqat hazm boʻlishi uchun oshqozondan keyin oʻn ikki barmoqli ichakka oʻtadi. Lyamblya oʻn ikki barmoqdagi odam uchun kerakli vitaminlar, minerallar, kaliy, kalsiylar bilan oziqlanadi. Lyamblya qaynatilmagan suv va ichimliklardan yuqishi mumkin. Lyamblyani davolash usullaridan biri uni oʻl-diradigan dori 5 kun ichiladi. Lekin bu dorini berishdan oldin jigarni yaxshilab tekshirish kerak. Keyin oʻlgan lyamblyalarni 5 kun ich surar qilib tushirish lozim. 20 kun yoki 1 oy oʻt haydovchi, yaʼni makkajoʻxori popugi berilsa, lyamblya tushib ketadi.

Bolalarda eng koʻp uchraydigan parazit bu – ostriitsa (oddiy gijja) enteriboz kasalligini chaqiradi. Ushbu gelmintlar katta boʻlmagan oʻlchamda, oʻrtacha 1 sm, oq-kulrang rangda, egilgan tanali boʻladi. Bu parazitlarning joylashish joyi yoʻgʻon ichakdir. Baʼzida ular ingichka ichakning pastki qismida ham joylashishi mumkin. Ostritsaning koʻpayi-



shi anal teshigi terisi atrofida kechadi. Tunda ostriitsa urgʻochisi tuxumlarini qoʻyish uchun teri burmalariga boradi. Ushbu gelmintlar 1-1,5 oy hayot kechiradi. Ostritsaning oshqozon va ichaklarga tushishi, organizmning parazit bilan zararlanihidir. Bola qoʻllari bilan har narsani ushlab koʻradi hamda ularni ogʻziga olib boradi. Shu yoʻl bilan ostriitsaning tuxumlari organizmiga tushadi. Ostritsani davolashning eng oson yoʻli tozalikka eʼtibor berishdir.

Parazitlarning bolalarda koʻp uchraydigan yana bir turi – askarida. U ingichka ichaklar qovuzlogʻida joylashib olib, tushayotgan ovqatlarni yeb qoʻyadi. Bola organizmining kurashish qobiliyati past boʻlganligi sababli parazit bemalol koʻpaya oladi. Bolalar yuvilmagan me-

valar va ifloslangan suv isteʼmol qilishi, axlat tushgan tuproq va qumlarda oʻynashi orqali ham gijjalar bilan zararlaniishi mumkin.

Shifokor sifatida shuni maslahat berardimki, kasallik har bir odamda individual tarzda kechadi. Shuni hisobga olgan holda, davolanish muolajasini olishdan oldin shifokor bilan maslahatlashishni unutmang! Yilida ikki marta vaqt ajratib, shifokorga murojaat qilib, tekshirishdan oʻtsangiz hamda eng asosiysi gigiyena va tozalikka eʼtibor qilsangiz parazitlar sizni bezovta qilmaydi.

Amrillo RAMAZONOV,
“NKMK jamgʻarmasi” DM 3-TSQ
2-ichki kasalliklar boʻlimi boshligʻi,
oliy toifali shifokor.

■ Inson va qonun

JINOYAT VA HUQUQBUZARLIKLAR muhokama qilinib, ularning oldini olish boʻyicha choralar belgilandi

Navoiy ixtisoslashtirilgan huquqni muhofaza qiluvchi organlari Muvofiqlashtiruvchi kengashining navbatdagi yigʻilishida Oʻzbekiston Respublikasining “Huquqbuzarliklar profilaktikasi toʻgʻrisida”gi Qonuni va sohaga doir boshqa qonun hujjatlari ijrosining ahvoli muhokama qilindi.

NKMK IIB boshligʻining 2024-yil 29-avgustdagi buyrugʻida birlashtirilgan hududda aholi, ishchi-xizmatchilar bilan har 10 kunda bir marotaba uchrashuvlar tashkil qilib, muloqotlar oʻtkazish, oy yakuni boʻyicha hisobot yigʻilishlarini oʻtkazish, “Huquqbuzarliklar profilaktikasi kuni” doirasida profilaktik-ogohlantiruv tadbirlarini tashkil etish, huquqbuzarlik profilaktikasiga doir boshqa dolzarb vazifalar belgilab berilgan boʻlsada, bu borada amaliy ishlar toʻgʻri yoʻlga qoʻyilmaganligi taʼkidlandi.

Oʻzbekiston Respublikasi “Huquqbuzarliklar profilaktikasi toʻgʻrisida”gi Qonunining 32-moddasida huquqbuzarliklar sodir etishga moyil boʻlgan, sodir etgan shaxslar haqida yashash joyidagi fuqarolarning oʻzini-oʻzi boshqarish organini huquqbuzarliklarning holati, ularga imkon berayotgan sabablar va shart-sharoitlarni koʻrsatgan holda xabardor qilish belgilab boʻlgan boʻlsada, NKMK IIB tomonidan 2024 va joriy yilning oʻtgan davrida bu talab bajarilmagan.

Kombinat ichki ishlar boʻlimi huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashishga hissa

qoʻshayotgan fuqarolar va jamoat tashkilotlarining tahlilini yuritmagan va ularni ragʻbatlantirish toʻgʻrisida huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish boʻyicha hududiy idoralararo komissiyalarga Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 8-yanvardagi 15-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Fuqarolar va jamoat tashkilotlarini huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashishdagi faol ishtiroki uchun ragʻbatlantirish tartibi toʻgʻrisida”gi Nizomning 7-bandida belgilangan tartibda birorta ham taklif bilan chiqilmagan yoxud taqdimnomalar kiritilmagan.

Yigʻilishda, kombinat tizimidagi korxona, tashkilot va muassasalarda huquqbuzarlik va jinoyatlarning oldini olish, uning sabablari va sodir etilishiga imkon bergan shart-sharoitlarni aniqlashning choralari koʻrilishi belgilab olindi.

Bahriddin AXMEDOV,
Navoiy ixtisoslashtirilgan
prokurori oʻrinbosari.

■ “101” xabar qiladi

Joriy yilning oʻtgan davrida Markaziy kon boshqarmasining “Zarafshon” shahrida joylashgan yongʻindan muhofaza qilinayotgan obyektlarida favqulodda holatlarning oldini olish va yongʻin xavfsizligini taʼminlash borasida bir qator ishlar amalga oshirildi. Yongʻin nazorati va profilaktikasi yoʻnalishi boʻyicha 67 marotaba oʻtkazilgan batafsil tekshiruvlar natijasida 823 ta banddan iborat Davlat yongʻin nazorati yozma koʻrsatmalari obyekt rahbarlariga ijro uchun taqdim etildi.

XAVFSIZLIK TALABLARINI BAJARISH SHART

Muhofaza qilinayotgan obyektlarda faoliyat olib borayotgan 8 ming 16 nafar ishchi-xizmatchilar ish-tirokida 135 marotaba yongʻin xavfsizligini taʼminlashga qaratilgan tushuntirish va targʻibot-tashviqot ishlari, 5 ming 324 nafar ishchi-xizmatchilar bilan uchrashuvlar, yangi ishga qabul qilingan 511 nafar ishchi-xizmatchilar bilan birlamchi yongʻin xavfsizligi yoʻriqnomalari oʻtkazildi. Tekshiruvlar davomida yongʻin xavfsizligi qoida-talablarini buzgan va yongʻin xavfsizligi qoidalarga rioya etmagan ishchi-xizmatchilar va yongʻin xavfsizligiga javobgar shaxslarga nisbatan Oʻzbekiston Respublikasi Maʼmuriy javobgarlik toʻgʻrisidagi kodeksining tegishli moddalari asosida 200 marotaba maʼmuriy bayonnomalar rasmiylashtirilib, 83 million 62 ming soʻm miqdorida maʼmuriy choralar qoʻllanildi. Yongʻin chiqish xavfi yuqori boʻlgan 66 ta bino va inshoot hamda 108 ta nosoz elektr quрилmalarining ish faoliyati vaqtincha

toʻxtatildi. Maqsadimiz kimdadir jarima solish yoki moddiy jihatdan taʼsir oʻtkazish emas, balki mamlakatimiz sanoatining asosiy tayanchi boʻlgan “NKMK” AJ boʻlinmalari obyektlarini yongʻindan himoya qilishdan iboratdir. Bu borada ishchi-xizmatchilarning nihoyatda eʼtiborli boʻlishi, ehtiyotkorlikni taʼminlashi uchun xodimlar tomonidan dargʻibot-tashviqot ishlarga katta ahamiyat berib kelinmoqda. Xodimlarimiz hamisha turli favqulodda vaziyatlariga shay turishadi. Chunki yongʻinga sabab boʻluvchi har qanday holatni nazardan chetda qoldirmasligimiz zarur.

Sunnatillo RAXMATOV,
“Markaz” KB OYOXTTEB P va NB inspektori,
kapitan.
Jamol AXMEDOV,
kichik inspektori, katta serjant.

KONCHILAR HAYOTI

MUASSIS:
“NAVOIY KON-METALLURGIYA KOMBINATI” AJ

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2022-yil 4-fevralda 1521-raqam bilan qayta roʻyxatga olingan.

Muharrir:
Nizomiddin SADRIDDINOV



Tahririyat manzili:
210100.
Navoiy shahri, Navoiy koʻchasi,
27-uy,
“NKMK” AJ boshqarmasi
Telefon:
Muharrir: 79 227-74-64.
Faks: 79 227-75-66

Gazeta har oyda ikki marta chop etiladi va “Navoiy kon-metallurgiya kombinati” AJ, “Navoiyuran” DK, “NKMK jamgʻarmasi” DM boʻlinmalariga tarqatiladi. Bahosi kelishilgan narxda.

Gazeta “Konchilar hayoti” gazetasi tahririyatida terildi va sahifalandi. “Noshir Lux” McHJ bosmaxonasida ofset usulida bosildi. Nashr sifati boʻyicha (91) 557-10-95 raqamli telefonga murojaat etishingiz mumkin. Bosmaxona manzili: Samarqand shahri, Spitamen koʻchasi, 270-uy.

Navbatchi: Adiba AXMEDOVA
Texnik muharrir: Zafarjon OLIMOV

Qogʻoz bichimi A2. 11700 nusxada chop etildi. Buyurtma № 279. 2025-yil 13-iyun 17:00 da chop etishga topshirildi.